

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING MA`NAVIY SHAKLLANISHIDA TA`LIM MUASSASINING IJTIMOIIY PEDAGOGIK TA`SIRI

¹Muqimov Firdavs Xasan o`g`li, I – bosqich talabasi

²Suyunova Madina Qaxramon qizi, I – bosqich talabasi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

gulinoza.ru@bk.ru

Annotatsiya:Maqolada maktab yoshidagi bolalarning ma`naviy shakllanishida ta`lim muassasining ijtimoiy pedagogik ta`siri haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Maktab, ijtimoiy, bola, ta`lim-tarbiya, jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, inqiroz, o`quv, tarbiya, ijtimoiy funktsiya.

Davlatimizdagi o`zgarishlar mavjud ta`lim tizimiga ham o`z ta`sirini ko`rsatdi. Chunki unda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozi aks etmasligi mumkin emas. Umumta`lim maktabi o`zining o`quv, tarbiya va ijtimoiy funksiyalarini ko`rib chiqib birinchi o`ringa quyidagi ijtimoiy funksiyalarni qo`yishi kerak edi:

1. Ta`lim to`g`risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarish lozim edi, biroq ta`lim bolalar va o`smirlar manfaati asosida tashkil qilinmoqda.
2. Maktabda tarbiya ishini ta`lim bilan teng yuritish.
3. Maktab faoliyatini qayta yo`naltirish.
4. Maktab ishini, bolalar faolligini oshirish, turli bolalar klublari tuzishga asoslash.

Maktab yoshidagi bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish maktabgacha tarbiya muassasalaridagi ijtimoiy pedagogik ishdan tubdan farq qiladi. Bu faoliyat o`quvchilarning doimiy kamol topishlari va ta`lim olishlariga bog`liq maktabdagi ijtimoiy pedagogik faoliyatning barcha jihatlarini ochib berishga harakat qilamiz. Respublikamizda maktab o`quvchilari bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish rivojlanmoqda. U qisman moziy tajribasi, qisman zamonaviy pedagogik tibbiy, psixologik, yuridik faoliyat turlariga tayanib ish olib bormoqda. So`nggi yillarda pedagogik jamoalar ham paydo bo`lib, ularda maktab nafaqat ta`lim-tarbiya masalalarini, balki o`quvchining boshqa bir qator ijtimoiy muammolarini ham yechmoqda.

Maktabning asosiy ijtimoiy vazifasi bolaning ta`lim-tarbiya olishga bo`lgan huquqini amalga oshirish hisoblanadi. Zamonaviy maktab sharoitlarida bolalarning ijtimoiy pedagogik himoyasi quyidagicha amalga oshmoqda:

Maktab ma`muriyati, sinf rahbarlari, guruh tarbiyachilari, kam ta`minlangan oilalar farzandlariga moddiy yordam, bepul ovqatlanish tashkil qilishadi. Sinf rahbarlarning bolaning oiladagi holatini o`rganishadi. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan alohida shug`ullanishadi.

Maktabda psixologlari, bola qobiliyatlari va qiziqishlarini o`rganishadi. Psixoterapevt va psixologlar ota-onalar va bolalarga maslahat berishadi va yordam berishadi.

Maktabda mavjud bo'lgan sog'liqni saqlash xizmati maktab o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazishadi, jismoniy tarbiya guruhlarini tuzishadi, kuchsiz bolalarga maxsus ovqatlanish tashkil qilishadi, karantin sinflarini nazorat qilishadi.

Maktabda ijtimoiy ishga maktab direktori yordamchilaridan biri rahbarlik qiladi. Tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari maktabning maktabgacha tarbiya muassasalari, turli hukumat tashkilotlari bilan aloqasiga katta e'tibor qaratadi.

Ota-onalar qo'mitasi ham o'z o'rnida tarbiyasi og'ir bilan ishlashga yordam beradi. Turli davlatlarda ijtimoiy pedagog ishiga ikki yondashuv mavjud: u maktab bilan hamkorlik qiladi yoki u maktabning shtatli hodimi hisoblanadi.

Maktab bilan hamkorlik qila turib ijtimoiy pedagog tez-tez maktabga borib turadi. Ota-onalar va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarining yaxshilanishiga yordam beradi, dars qoldirish sabablarini aniqlaydi. U bolalar bilan qo'pol munosabatda bo'lgan oilalarni, jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalarni aniqlaydi. Bola yoki oilaga yordam berish maqsadida bolaning uzoq davom etgan kasalligi sabablarini surishtiradi, bola o'qishda ortda qolmasligi uchun u bilan uyda va kasalxonada alohida shug'ullanadi. Bola tarbiyasidagi muammolarni xal qilish uchun huquqshunos, shifokor, militsiya hodimlari xizmatidan foydalanadi.

Ijtimoiy pedagog o'quvchining maktabdan tashqari vaqtini tashkillashtirib, o'z tarbiyaviy ishini olib borishida ota-onalar bilan hamkorlik qiladi. Hamkorlik yuzasidan seksiya, klublar, har xil mehnat, turistik bo'linmalar tashkil qiladi. Ijtimoiy pedagog pedagogik jamoaning tarbiyasi og'ir bolalar bilan ish olib borishini tartibga soladi. U maktab pedagogik jamoasiga doimiy tarzda sinfdagi psixologik muhit to'g'risida axborot beradi. Aynan shu holat maktabda ijtimoiy ish olib borishning rejasini tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Ko'pgina g'arbiy Evropa davlatlarida ijtimoiy pedagog maktabning shtatli xodimi hisoblanadi. U ijtimoiy yordamga muhtoj bolalarni aniqlaydi. Bu bolalar maktab kursini uzlashtirishga qobiliyati yetmaydigan bolalardir. Bu bolalar maktab yoki oilada ruhiy tushkunlikni boshdan kechirishadi. Odatda bu bolalar voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiya ro'yxatida turishadi. Ba'zan bolalar va ularning atrofida gilar bilan munosabatlarini oydinlashtirish etarli yordam beradi.

Ijtimoiy pedagog maktabdan haydalgan bolalarga alohida e'tibor qaratishi kerak. U ularni boshqa maktabga joylashtirishga, yangi jamoaga ko'nikishlariga yordam ko'rsatadi. Ijtimoiy pedagog dasr soatlari vaqtida noqonuniy ishlab yurgan bolalarni aniqlaydi, ularning o'qish masalasini hal qiladi. U ko'p bolali oilalarning barcha imtiyozlaridan foydalanishlari, bolalarning reabilitasion markazlarga qatnashlarini nazorat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari va sinf rahbarlari tumandagi oila va o'quvchilarni o'rganib chiqishadi. ijtimoiy yordamga muhtoj bolalarga e'tibor berishadi, tarbiyasi og'ir bolalarni tarbiyalashda oilalarga yordam berishadi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari o'z faoliyatida to'garak, seksiya, klublarni tashkil qilish, o'tituvchining o'quvchilar bilan indevidual ishlashini, yashash joyida bolalar bilan konsultasiya o'tkazish, alohida pedagogik e'tiborga muhtoj bolalar bilan ish olib borishni nazorat qiladi.

Alohida fanlardan dars beruvchi o'qituvchilar bolalarning qiziqishlarini o'rganib chiqib, ularni turli to'garak va seksiyalarga jalb qilishadi. Maktabda turli tadbirlar o'tkazishadi. Bu tadbirlarni o'tkazishda ota-onalar va sobiq o'quvchilar yordamidan foydalanishadi, maktabga mashhur kishilarni chaqirishadi.

Maktab yoshidagi bolalarning asosiy ijtimoiylashtiruvchi omili bolalar submadaniyatini shakllantiruvchi tengqurlar jamoasidir. Ijtimoiypedagog bu hodisalarning funksiyalarini bilishi, ularning o'quvchilarning shaxsiy hislatlari va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishdagi o'rinlarini ko'ra olishi lozim.

Tengqurlar guruhi odatda a'zolarining hududiy yaqinligi asosida shakllanadi. Tengqurlar guruhi individual qiziqishlarning mos tushishi, rasmiy tashkilot(sinf,skautlar guruhi va boshqalar) borligi va guruh a'zolariga`rtasida shaxsiy munosabatlar mavjudligi tufayli shakllanadi. Bu munosabatlar guruh a'zolarining xarakter va o'zaro ta'sirlarida, shuningdek sinfda rollarni taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Bola ijtimoiylashuvining shartlaridan biri tengqurlar bilan munosabatga kirishishdir. Bu munosabat bolalar bog'chasi guruhi, maktab sinflari, turli norasmiy bolalar va o'smirlar birlashmalari kabi kichik guruhlarda shakllanadi. Bolalar va o'smirlar guruhlarida tengdoshlar orasida funksional, emosional shaxsiy munosabatlar o'rnatiladi.

Funksional munosabatlar bolalar faoliyatining alohida sohalari (mehnat, o'qish)da qayd etilgan bo'lib, kattalarning bevosita rahbarligi ostida guruhdagi xulq-atvor normalarini o'zlashtirish orqali shakllanadi. Tengdoshlar guruhining hamma a'zolari ham yosh jihatdan teng bo'lmaydi. Bu guruhga har xil yoshdagi, biroq umumiy qadriyatlar, munosabatlar tizimi yoki qiziqishlari bilan birlashgan bolalar ham kirishi mumkin. Tengdoshlar guruhi a'zolarining soni turlicha bo'lishi mumkin. O'rtoqlar guruhida 2-3dan 5 gacha, og'aynilar guruhida 7-9 gacha, assosial guruhlarda 20 tagacha, rasmiy guruhlar-sinf, to'garak va boshqalarda 30-40 tagacha a'zo bo'lishi mumkin.

Ekspurimental tadqiqotlarda etakchisi bo'lmagan guruh aniqlanmagan. Sohaviy etakchilar ham bo'lishi mumkin. Masalan, aqliy, emosional, ishbilarmon yetakchi bo'lishi mumkin. Tengqurlar guruhini bir necha parametrlar bo'yicha tasniflashimiz mumkin.

Ijtimoiy tizimidagi yuridik maqomiga ko'ra tengqurlar guruhlarini rasmiy, ya'ni jamiyat tomonidan tan olingan, biror bir davlat yoki jamoat tashkiloti bilan bog'liq bo'lgan guruhlar vanorasmiy-o'z-o'zidan mavjud bo'lgan guruhlariga bo'linadi.

Ijtimoiy psixologik maqomiga ko'ra ular ikkiga bo'linadi, ya'ni mansublik guruhi-uning haqiqiy a'zolari mavjud (sinf, sport klubi va boshqalar) va referent guruhi- bunga inson mansub emas, biroq hayolan tayanadi.

So'nggi 10 yilliklarda tengqurlar guruhlarini voyaga etayotgan avlod ijtimoiylashuvida eng muhim mikroo'millardan biriga aylandi. Avvalgi davrlarga qaraganda ularning o'rni ancha jiddiylashdi, bunga bir qator jarayonlar o'z ta'siri ko'rsatdi.

Bolalar, o'smirlar va o'spirinlar bir vaqtning o'zida bir necha bir-birdan farqlanuvchi guruhlariga a'zo bo'lishlari mumkin. Rasmiy guruhlar (sinf, sport

to'garagi va boshqalar) bolalar ijtimoiylashuviga ular hayotiy faoliyatining mazmuni, ularda shakllangan o'zaro munosabatlarning xarakteriga bog'liq ravishda ta'sir ko'rsatadi. Norasmiy guruhlar bolalar, o'spirinlar va o'smirlar ijtimoiylashuviga ularning tarkibi, yo'naltirilganligi etkachilik turiga ko'ra ta'sir ko'rsatishadi.

Urbanizasiya shunga olib keldiki, borgan sari ko'p bolalar, o'smirlar shaharlarda yashashyapti va u erda ko'proq tengdoshlar bilan muomala qilish imkoniga ega bo'lishmoqda. bu muomalani kattalar to'liq nazorat qila olishmaydi. Katta oilaning kichiklashuvi bir bolali va to'liqsiz oilalarning ko'payishi, oilalarning noto'g'ri tashkillashtirilganligi bolalar uchun oiladagi emosional aloqalarning etishmovchiligini uydan tashqarida to'ldirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Turli yosh va ijtimoiy madaniy xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay tengqurlar guruhining ijtimoiylashuvdagi funksiyalari universaldir. Birinchidan, guruh a'zolarini shu jamiyat madaniyatiga o'rgatadi, ya'ni ularning xulq-atvorini guruh a'zolarining milliy, diniy, mintaqaviy, ijtimoiy mansubligiga moslashtiradi. Ikkinchidan, tengqurlar guruhlarida ijobiy xulq-atvorga o'rgatiladi. Bu ularga namunaviy xulq-atvorlarni ko'rsatish, g'ayri ijtimoiy xulq-atvorlarga nisbatan chora qo'llash orqali amalga oshiriladi. Uinchidan, tengdoshlar guruhlari bolalar, o'smirlar va o'spirinlarning kattalar, xususan ota-onalar ta'siridan avtanomlashuvlari jarayonida muhim o'rin tutadi. To'rtinchidan guruh o'z a'zolariga yosh submadaniyatidan mustaqil bo'lish imkonini beradi.

Guruhda emosional va shaxsiy munosabatlar ham shakllanadi. Bolalar va yosh o'smirlar guruhlarida emosional munosabatlarning asosiy funksiyasi tengqurlar xulq-atvorini umumqabul qilingan xulq-atvor normalariga moslashdir. Bu holatda do'stlik rishtalari, simpatiya birinchi o'ringa ko'tariladi. Aslida ular ontogenezda ancha avval paydo bo'lishgan. Agar maktabgacha yoshdagi bola ularga amal qilsa, bu holat boshqa bolalar tomonidan ijobiy qabul qilinadi.

O'rtoqlar va og'aynilar guruhlari kiyinish, yurish-turish borasida tengdoshlar jamiyatiga mos bo'lishga harakat qilishadi. Shu bilan bir vaqtda o'z mustaqilliklarini ham saqlashadi. Ya'ni boshqa bolalarni o'z guruhlariga qo'shmaslikka harakat qilishadi. Beshinchidan, tengdoshlar guruhlari bolalar tomonidan o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini belgilab olish masalalarini echishga qulay yoki noqulay sharoitlar yaratib beradi. Oltinchidan, guruh o'z a'zolari tomonidan "ekologik chuqurlik" sifatida qabul qilinadigan spesifik ijtimoiy tashkilot hisoblanadi.

Shaxsiy munosabatlar guruhdagi o'zaro bog'liqlik bo'lib, bunda bir bola xulq-atvorining sababi boshqa bola uchun shaxsiy ma'noga ega bo'ladi. Shaxsiy munosabatlar bola atrofdagilar bilan munosabatda kattalar rolini bajarganda yorqin namoyon bo'ladi.

Bolalar hamjamiyati bolalar submadaniyatining tashuvchisi hisoblanadi. Bolalar submadaniyati—bu bolalarga jamiyatga ko'nikishlariga va o'z normalarini yaratishlariga ko'maklashuvchi madaniy hudud va muomala doirasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davletshin M.G va b. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T-2004 yil.
2. Nishonova Z.T, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o`qitish metodikasi. Toshkent-2003 yil
5. Qarshiboyeva G.Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
6. Qarshiboyeva G. Психологик маслахат. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Каршибаева Г.А.Теоретическая основа проблемы психологических особенностей подростков с суицидальным поведением. Молодой ученый, (49), 230-233.
8. Qarshiboyeva, G. (2021). The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. Архив Научных Публикаций JSPI.
9. Karshibayeva, G. (2021). Диагностика суицидального поведения у подростков. Вестник интегративной психологии, (22), 84-89.
10. Абдурасулов, Р. А., & Каршибоева, Г. А. Психологик тренинг асослари. Ўқув кўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент–2019 йил.